

**JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM VA
TARBIANING O'RNI HAMDA YANGI INNOVASION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Siddiqov Botirjon Valixanovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik
litsey bosh o'qituvchisi*

Sharipov Asadbek Abdulhakim o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik
litsey bosh o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada bolalarda jismoniy qobiliyat, harakat malakalari va ko'nigmalarini rivojlantirishga yordam beradigan, bola shaxsini tarbiyalashda kompleks yondashish masalalari hamda yangi innovatson texnologiyalardan foydalanish tartibi yoritilgan.

Tayanch suz va tushunchalar: Emotsional, innovatsiya, texnologiya, ta'lif metodlari, usul, harakat malakasi, harakat ko'nikmasi.

Bugungi kunda yurt kelajagi bo'lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga dahldor, ijtimoiy mas'uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi muammolarni falsafiy, huquqiy, sotsiologik yondashuvlar orqali hal qilish, ularning tafakkur tarzini takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda jismoniy tarbiya va sportga tarbiya vositalaridan biri sifatida yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu omil, milliy g'urur, Vatan uchun faxrlanmoq, or-nomus, yurt sha'ni kabi tuyg'ular shakllanishining asosi sanaladi. Sport mashg'ulotlari jarayonida g'oyaviy tarbiyalash, o'qish, mashq qilish, musobaqalarda ishtirok etish axloqiy me'yordarga rioya qilish orqali amalga oshiriladi. O'quv-sport mashqlarida, sport musobaqalarida sportchilar katta ruhiy va jismoniy zo'riqishlarni boshidan kechiradilar. Bu zo'riqishlar ularning irodasini mustahkamlaydi, dadillik, o'zini qo'lga olish, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, chidamlilik va intizomga o'rgatadi.

Ta'lif shaxsni har tomonlama (aqlan, axloqan, jismonan) shakllantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ta'lif mazmunini jismoniy mashqlar, jumladan, dasturga muvofiq tanlangan harakatli o'yinlar tashkil etadi.

Bolalar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlarini xisobga olish juda zarur, bolaning ongli harakat faoliyatida asqotadigan ayrim bilimlar, bolani harakatlarga

o‘rgatuvchi faoliyati usullari, faoliyat va ularni amalga oshirishning malaka va ko‘nikmalari haqidagi bilimlar birligi tashkil etadi.

Yangi narsani o‘zlashtirish boladan muayyan jismoniy va psixik kuchni, qyinchiliklarni yengib o‘tishni talab etadi. Bolaning mashqlar jarayonida yangi harakat vazifalarini tobora hal etib, borishi va shu bilan bog‘lik ravishda vujudga keladigan katta imkoniyatlar harakatlar harakteri va sifatini o‘zgartiradi.

Qiyinchiliklarni yengish va yangi vazifalarni hal etish bolada ijobiy xissiy kayfiyat xosil qiladi. Bu murakkab jarayon doimo tarbiyachi nazorati ostida bo‘lishi kerak. Bir tomondan, bolaning yangi harakat vazifasini tushunib olishini ta’minlash lozim, ikkinchi tomondan, bolada mustaqillik, qiziqish va g‘ayratni uyg‘otish zarur.

Ta’lim boladan diqqatni bir joyga to‘plashni, tasavvur, faol fikrlashni, xotirani rivojlantirishni talab qiladi. Ta’lim jarayoni emotsiyonal, harakat namunasi tarbiyachi tomonidan ko‘rsatilsa va bolalar tomonidan bajarilsa obrazli, shuningdek, og‘zaki-mantiqiy, mashqlar bolalarning o‘zlarini tomonidan amalda bajarish bilan bog‘lik bo‘lsa harakatli xotira rivojlanadi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish bolalarni ular kuchi yetadigan mehnat harakatlarida mashq qildirish imkonini beradi.

Jismoniy tarbiya tizimida x,ar tomonlama ta’lim va tarbiya berish tamoyillari ishlab chikilgan.

Ta’limning maqsadi bolalarda kelajakda jismoniy tarbiyadan me’yoriy ko‘rsatkichlar majmuasi talablarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun jismoniy tayyorgarlik hosil qilishdan iboratdir. Shu asosda bolalarda O’zbekistonning mashxur sportchilari, ularning vatanparvarligi, ishchanligi, jasurligi, bardoshliligi, mahorati, do’st-birodarligi va o‘zaro yordam kabi xislatlariga hurmat hissi tarbiyalanadi.

Bolalarga jismoniy ta’lim va tarbiya berish jarayonida quyidagi didaktik-ta’limiy tamoyillar qo‘llaniladi:

- tizimlilik va izchillik, onglilik, mustaqillik va ijodiy faollik, ta’limning ko‘rgazmali og‘zaki va amaliy usullarini birga qo‘shib olib bo-rish;

- tushunarilik va individuallashtirish, ta’limning frontal, gurux va yakka tarzdagi shakllarining birligi, talablarni tobora oshirib borish;

Tizimlilik va izchillik tamoyili jismoniy tarbiya maqsadlarida foydalilanligan tadbirlarning (kun tartibi, chiniqish, harakat ko‘nikmalarining shakllanishi) tizimliligi, butun tarbiya davri davomidagi jismoniy tarbiya jarayonining uzlusizligi, muntazamligi, rejallashtirilganligidan, yuklama va dam olishning majburiy almashinib turishi asosidagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining aniq izchilligidan, mashg‘ulotlarning ketma-ketligi, mazmunan o‘zaro aloqadorligidan iboratdir.

Har kuni muayyan bir vaqtida o‘z xarakteriga ko‘ra turli jismoniy mashqlar (ertalabki gimnastika, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, sayr paytidagi harakat faoliyati

va shu kabilar)ni tizim tarzida muntazam bajarish, chiniqtirish tadbirlari bolalarni belgilangan sog'lomlashtirish-tarbiyalash tartibiga o'rgatadi.

Onglilik, faollik va mustaqillik tamoyillari bolaning o'z faoliyatiga ongli va faol munosabatda bo'lishga tayanishini ko'zda tutadi, u yoki bu maqsadni amalga oshirish uchun nimani kanday bajarish kerakligini aniq tasavvur qilish lozim.

Yangi harakatlarni o'rganishda ko'rgazmalilik tamoyili harakatlarning tarbiyachi tomonidan juda aniq qilib ko'rsatilishi orqali amalga oshiriladi.

Ko'rgazmalilik onglilik bilan chambar-chas bog'likdir. Og'zaki berilgan topshiriq kishi tomonidan tushunib olinadi, harakatni qaytadan bajarish bilan amalda sinaladi. Bunda sezgilar, ayniqsa, harakat sezgilarini muxim rol o'ynaydi.

Tushunarlik va bolalarga yakka yondashish tamoyili bolaning yosh xususiyatlari imkoniyatlarini hisobga olishni hamda shu bilan bog'lik ravishda uning kuchiga yarashga topshiriklar belgilashni ko'zda tutadi. Tushunarlikning asosiy shartlaridan biri izchillik va jismoniy mashqlarni tobora murakkablashtirib borish xisoblanadi.

Ta'limning frontal, guruh va yakka tartibdagi usullarining birligi tamoyili. Bu tamoyil ta'limning turli usullari qo'llanilgandagi uyushqoqlikni ko'zda tutadi: frontal usul qo'yilgan vazifani bir vaqtda, ongli va ahil ravishda bajarishni talab etadi, guruh usuli mas'ul, mustaqil va o'zaro yordamni rag'batlantirishni talab etadi, yakka yondashuv usuli tarbiyachining ba'zi bolalarga yordam berishi va ancha tayyorgarligi bor boshqa bolalarga nisbatan talabchanlikni oshirishda ifodalanadigan raxbarligini taqozo kiladi. Bu usullardan birgalikda foydalanish tarbiyaviy vazifalarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Mashqlarni yangilash jarayonida harakat malaka va ko'nikmalarining xajmi kengayadi va boyiydi.

Harakat faoliyati shakllarini murakkablashtirish bilan birga bolaning kuchiga yarasha beriladigan jismoniy yuklama asta-sekin oshirib boriladi. Bu jismoniy fazilatlarning rivojlanish qonuniyatları bolaning kuchi, chidamliligi, tezkorligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari-majmuaviy interfaol tizimlar bo'lib, ular o'zida ta'lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy ko'nikma, malakalar va shaxs xislatlarini o'rganuvchilar tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plamini aks ettiradi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqishga tatbiq etish, ta'lim jarayonlarini tashkil qilish, ta'lim metodi va vositalarini belgilash, shuningdek, o'qituvchilar malaka darajasi hamda erishilgan natijalarini baholash metodiga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo'llanilishi o'quv jarayoni mohiyati va uning texnologiyasini belgilab beradi.

Innovatsiya (inglizcha Innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan to‘liq foydalaniladi. Interfaol usullar bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ya’ni pedagog va o‘qituvchi-o‘quvchilar bilan birlgilikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni bir qator xususiyatlarga ega:

- o‘qituvchi-o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlaydi;
- o‘qituvchi-o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish;

Pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan TSO, kompyuter, masofali o‘qitish yoki texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedtexnologiyaning eng asosiy negizi bu o‘qituvchi va o‘quvchi-o‘quvchi bilan belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog‘liq. Ya’ni o‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ham ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida mustaqil fikrlay olsa, ijod qilsa, izlansa, tahlil qilsa, xulosa chiqarsa, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yaratса, shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir darsdagi mavzu va o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi mavjud. Ya’ni o‘quv jarayonidagi pedtexnologiya, bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. “Uzlucksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi” da milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilmfanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va mafkuraviy jihatdan eskirgan, to‘liq an’anaviy (bosma) usulida nashr etilayotgan darsliklar ma’lum qismining yangi ta’limiy ehtiyojlarni qondira olmayotganligi ko‘rsatilgan.

Ko‘rib o‘tilgan barcha tamoyillar o‘z mazmuniga ko‘ra o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning barchasi o‘zida yagona va faqat shartli ravishda alohida holda qaraladigan bir jarayonning muayyan jihatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi.

Izoxli lug‘at:

Emotsional - Emotsiya jihatidan bo‘lgan, emotsiyaga oid, emotsiya-xis-tuyg‘u ifodalovchi.

Innovatsiya - Fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy extiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma.

Texnologiya- Yunoncha “techne” so‘zidan olingan bo‘lib, mahorat, san’at degan ma’noni, “logos”- so‘z, ta’limot ma’nosini anglatadi.

Ta’lim metodlari - Motivatsiyali, tashkiliy, tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi.

Usul – Biror narsani yuzaga chiqarish, amalga oshirish yo‘li, harakat tarzi, hili, tartibi, yo‘l.

Harakat ko‘nikmasi va malakasi – Har xil mashqlarni harakat ko‘nikmasi va harakat malakasi bo‘lgan taqdirda bajarish mumkin. Bu ko‘nikma va malakalar harakatlarni bajarishning muayyan usullarini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nopmypadov A.N. Jicmoniy tapbiya. - T.: 1998.
2. A.V.Keneman, D.V.Xyxlueva “Maktabgacha tapbiya ëshidagi bolalapni jicmoniy tapbiyalash nazapiyaci metodikaci”. - T.: «O’qituvchi», 1988.
3. Jicmoniy tapbiya nazapiyaci va metodikaci. (Ma’pyzalap matni). Tyzyvchilap: K.M.Mahkamjonov, X.B.Tylenova - T., 2002.
4. X.Toshpo‘latov O’ZDJTSU “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida jismoniy tayyorgarlik jarayoning ahamiyati”.
5. Sh.Qurbanov, O’z.Res. IIV Akademiyasi – maqola “Jismoniy tarbiya fanlarini o‘qitishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish”